

Xotira – bor ekan millat barhayot



05.05.2023

Xotira – bor ekan millat barhayot

Abdulla Oripov o'zbek adabiyotini yangi bosqichga ko'targan noyob iste'dod sohibi edi. Uning yuksak badiiy, teran falsafiy she'rlari xalqimizning ko'nglidan joy olgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-maydagi Farmoni ijrosini ta'minlash va mamlakatimizda 9 - may "Xotira va qadrlash" kunini umumxalq bayrami sifatida munosib nishonlash maqsadida joriy yilning 5 may kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ining "Adiblar xiyoboni"da universitetimiz jamoasi va talaba-yoshlari o'rtasida O'zbekiston xalq shoiri, jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matni muallifi Abdulla Oripovning yorqin xotirasiga bag'ishlangan "Xotira – bor ekan millat barhayot" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Mazkur tadbirda "Yer resurslari va kadastr" fakulteti jamoasi, fakulteti dekani Sh.Narbaev va Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova yoshlar ittifoqi yetakchisi H.Tojiboev hamda tyutorlarimiz Ibragimova Surayyo, Xayitova Aziza, Ibrogimova Dilbar va Abdusamatov Otabeklar boshchiligida atoqli ijodkorning haykali poyiga gullar qo'yishdi. Ayniqsa, talaba-yoshlarimiz tomonidan "Abdullaxonlik" she'riyat kechasi adabiyot shinavandalarini mushoiraga chorladi. Unda shoir ijodidan namunalar, Vatan haqidagi she'rlar aytili.



Tadbirni unversitetimiz matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov olib bordi. Fakultet dekani Sh.Narbaev tadbir mazmun - mohiyati bilan bog'liq holda, o'z fikr-mulohazalarini aytib, tadbirni ochib berdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar shoirning hayotiy kechinmalari va faoliyati borasida to'lqinlanib gapirib uning she'rlaridan ayrim namunalarni o'qib berishdi. Biz bilamiz bugungi kunda unversitetda ham adibning ijodini targ'ib qilish maqsadida yo'l xaritasi ishlab chiqilib, shoir ijodi va hayot yo'lga bag'ishlangan ko'plab ma'naviy-ma'rifiy, badiiy va ijodiy tadbirlar o'tkazildi.



Bugungi o'tkazilgan tadbirda yozuvchilar a'zosi, iqtidorli shoir Shodi Otamurod o'zining hazillomuz she'rlari bilan ishtirok etdi. U yig'ilganlarga shoir ijodi hamda she'rlaridan namunalar o'qishdi. Tadbir savol-javoblarga boy tarzda bo'lib o'tdi. O'zbeklarga xos donishmandlik, bag'rikenglik, xokisorlik va andisha Abdulla Oripov hayoti va ijodiga singib ketgan. Bunday e'tiroflar o'z-o'zidan dunyoga kelgan yemas. Vatan qiyofasini badiiy aks ettiruvchi, uning dardlari, quvonchlari, orzu-umidlari, o'tmishi, kelajagini namoyon etuvchi xalqning vijdoni hisoblanadi. Abdulla Oripov ana shunday shoirlar sirasidan sanaladi. Ayni paytda, ijodkor Vatanni ulug'lash bilan cheklanib qolmaydi. Uning qudratini namoyon qiluvchi kuch xalq ekanligini chuqur anglaydi. Shu sababli uning asarlarida Vatan bilan hamohang tarzda dovyurak va tanti, munis va mushfiq, insofli va diyonatli, inson boshiga tushishi mumkin bo'lgan barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tgan, yorug' kunlar kelishiga ishongan va bu yo'lda kurashgan xalqimizning halol, pok, samimiy qalbi namoyon bo'lib turadi. Boshqacha aytganda, shoir she'rlarida Vatanga baxshida qalbning va qalblarning tug'yonlarini aks ettirdi. Ayniqsa, "Yerdan foydalanish" va "Fizika" kafedralari o'qituvchilari A.Bobojonov hamda A.Axmedolar o'zlarini she'rlari va ajoyib qo'shiqlari bilan barcha yig'ilganlarni xushnut etishdi.

YRK fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti